



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



No 7  
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiyaga fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 202 sahifa,  
1-iyul, 2025-yil.

## BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

## BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabihev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'idoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarcand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahriri yati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)

Panjayev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'inining birinchi

o'rinnbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**

Umarova H. O' – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

**EDITORIAL BOARD MEMBERS:**

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda

Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oly attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va matab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №136361



# MUNDARIJA

Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari .....	16
Doniyorov Salim Musurmonovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish.....	23
Nazarov Odil Omanqulovich	
"Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni .....	27
Abirova Umida Nazarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati .....	30
Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li	
Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari .....	34
Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna	
Maktabgacha ta'lif tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda	
ta'limi o'yinlarning ahamiyati .....	38
Salimova Dilmira Farxodovna	
Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar .....	41
Rajabov Asliddin Xolmirzayevich	
Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati.....	44
Boltayev Baxtiyor Yunusovich	
Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar .....	48
E. Po'latova	
Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ...	51
Egamova Ravshanoy Surobjonovna	
O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin?	
Innovatsion ta'lif yondashuvlari va samarali strategiyalar.....	55
G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li	
Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi .....	60
Isayeva Mushtari Alisher qizi	
Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons .....	63
Mavlonova Dildora Shuxrat qizi	
Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish .....	67
Nomozova Dilobar Suyun qizi	
Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini	
shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar .....	72
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories .....	75
Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li	
Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction:	
a Review of Recent Literature .....	80
Ruzieva Maftuna	
Onlayn va gibrid ta'lif sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga	
qiziqishni oshirishning nazariy asoslari.....	85
Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna	
Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun	
"Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida).....	88
Sharipova Hakima Shavkatovna	
Metacognition and Self-Regulated Learning .....	92
Turayeva Nazira Ibragimovna	
Mетодические возможности совершенствования обучения научной	
письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода .....	95
Меденцева Наталья Петровна	
Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lif muassasalari	
raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari .....	100
Jonibekov Jasur Jonibekovich	



O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi.....	105
Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi	
Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi.....	108
Bakayev Najmiddin	
Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida .....	112
Egamova Madina Qobil qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari.....	116
Egamova Shukriya Amanova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari .....	119
G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi	
Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish .....	124
G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich	
Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari .....	128
Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	131
Ikromova Munisa Sheraliyevna	
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari .....	134
Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna	
Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar .....	138
Jumanova Iroda Shokirjon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish .....	141
Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna	
Talabalarda nutqiylarini shakllantirish texnologiyasi .....	145
Kiyamova Maxbuba Sultanovna	
Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari.....	148
Mamadiyorov Jamol	
Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari.....	152
Sharipova Firuza Mehriddinovna	
Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli .....	155
Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li	
Maktabgacha ta'lilda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida.....	159
Xallokova Maksudaxon Ergasheva	
Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari.....	162
Xatamova Ferangiz Ibodulloyevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi .....	166
Xudoberganova Matluba Quisoxatovna	
Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzallikkleri.....	170
Yodgorova Gulrux Farhodovna	
Совершенствование методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования.....	174
Юлдашев Эргаш Сабирович	
O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati .....	177
Kudenov Temurbek Maxsetbaevich	
Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida .....	180
Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna	
Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamlı ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar .....	185
Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi	
The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes .....	189
Meliboyev Zuxriddin Isroiil ugli	

O‘zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvisatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari .....	192
Ergasheva Muhayyoxon G‘anijonovna	
Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagи bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi.....	196
Arslanova Umidaxon Komiljon qizi	

# BOSHLANG'ICH SINF O'QISH DARSLARIDA HIKOYA JANRINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna

Uchqo'rg'on tumani 46-maxsus mакtab-internat boshlang'ich sinf o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda adabiy o'qish darslarida ayrim zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, o'qish darslarida nasriy asarlar, xususan, hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy asar, hikoya janri, ta'lism texnologiyalari, muammoli ta'lism, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, loyiha usuli, interfaol o'qitish usullari, o'yin texnologiyalari elementlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Abstract:** This article examines the features of using some modern educational technologies in literary reading classes in primary grades. Also, the use of modern technologies in the teaching of prose works, in particular the narrative genre, was studied as a current issue in reading classes.

**Key words:** artistic work, narrative genre, educational technologies, problem-based education, critical thinking development technology, project method, interactive teaching methods, game technology elements, information and communication technologies.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются особенности использования некоторых современных образовательных технологий на уроках литературного чтения в начальных классах. Также, как актуальную проблему, на занятиях по чтению изучалось использование современных технологий в обучении прозаическим произведениям, в частности повествовательного жанра.

**Ключевые слова:** художественное произведение, повествовательный жанр, образовательные технологии, проблемное обучение, технология развития критического мышления, метод проектов, интерактивные методы обучения, элементы игровой технологии, информационно-коммуникационные технологии.

## KIRISH

Dunyoda so'z san'atining gultoji bo'lgan nasriy asarlar vositasida millat kelajagi bo'lgan avlodni oliy insoniy haqiqatlar va yuksak madaniy tamoyillar bilan, mazmunan yangi, modernizatsiyalashgan ta'lism tizimi asosida tarbiyalashni yo'lga qo'yish, mazkur jarayonning amaliy faoliyat subyekti sanalmish o'qituvchi hamda pedagoglarning nazariy jihatdan tayyorgarligi, amaliy kasbiy kompetensiyasini o'zgaruvchan va shiddat bilan ilgarilab borayotgan zamon talablariga muvofiq tarzda takomillashtirishga doir ilmiy izlanishlar va fundamental tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda. Sharq pedagogikasi hamda ta'lism amaliyoti o'zining uzoq davrdagi ulkan tajriba va an'analarini asosida bugungi kun odamlari, xususan, yosh avlodni ajdodlar o'gitiga tayanib, zamonning turfa muammolarini ma'naviy yondashuv bilan hal qilishga qodir insonlar sifatida tarbiyalash va mas'ullik ruhida kamol toptirishga intilishi tabiiy jarayon sanalib, erishilgan yutuqlar hamda to'plangan tajribalarni kundalik amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi kunda barcha boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda zamonaviy ta'lism texnologiyalaridan foydalilmoxda. Biroq har bir aniq fanni o'qitish jarayonida bunday texnologiyalardan foydalanish fanning maqsad va vazifalari, dars mavzusi, kichik yoshdag'i o'quvchilarning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqqan holda belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Badiiy o'qishni o'rgatishda o'qituvchi ko'pincha muammoli ta'lism, tanqidiy

fikrlashni rivojlantirish texnologiyasi, loyiha usuli, interfaol o'qitish usullari, o'yin texnologiyalari elementlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalanadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan N.I. Kudryashev, T.N. Mayorova, M.M. Bezrukix, S.P. Efimova, G.S. Kovalvoy, O.B. Loginova, G.G. Granik, S.M. Bondarenko, L.A. Konsevayalar ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borganlar. Asosan, XIX asrning ikkinchi yarmida o'qish darslarini zamonaviylashtirishga e'tibor qaratildi va dars jarayonini yangi talab asosida ishlab chiqishda R.A. Mavlonova, M. Arabova, G. Salohiddinova, H. Bakiyevalarning o'rni katta bo'ldi.

So'nggi paytlarda ko'p bolalarda istaksiz va kam o'qish tendensiyasi mayjud. O'qish darslari ular uchun zerikarli bo'lib qolmoqda. Buning bir qancha sabablari bor: o'qishga qiziqishning umumi pasayishi; o'qishdan tashqari axborot manbalarining ko'pligi; o'qish uchun vaqtning qisqarishi. Bolalarni o'qishga o'rgatish, albatta, qiyin. Ammo ularni o'qishni sevishga o'rgatish yanada qiyinroq. Dastlab, bolalar o'qishni o'rganish jarayonidan zavqlanishadi. Ular harflardan qanday qilib so'zlarning paydo bo'lishini ko'rishga qiziqishadi. Ammo o'qish tezligini oshirish haqida gap ketganda, o'qituvchi sinfda bo'lsa va ota-onalar uyda bolani o'qishga, o'qishga va yana o'qishga undashga harakat qilsalar, ko'p bolalar o'qish istagini yo'qotadilar.

Yosh avlodga ta'lif va tarbiya berish uchun yildan-yilga yanada qat'iy talablar qo'yilmoqda. Asosiy pedagogik vazifalardan biri – bolalarga ta'lif va tarbiya berishga yordam beradigan zamonaviy ta'lif texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyatda qo'llashdir. E.N. Ilyin o'z asarlarida shunday ta'kidlagan edi: "O'qimaslik yoki undan ham ko'proq e'tiborsiz o'qish mumkin bo'limgan sharoitlarni yaratish kerak, ya'ni savolni shunday qo'yish kerakki, unga javob izlanadi. Fikr tarangligini, matnni o'qishga o'ylangan munosabatni talab qiladi". Savol berish va ularni hal qilish yo'llarini izlash qobiliyati muammoli ta'lifning asosidir. Aynan muammoli ta'lif o'quvchilarning bilim faolligini oshirishga, shuningdek, o'z-o'zini o'rganish va ijodiy faoliylik qibiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot muammosiga oid siyosiy, sohaga doir ilmiy, ilmiy-metodik manbalar, pedagogik va psixologik (kasbiy mahorat, kompetensiya) adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish, me'yoriy hujjatlar, pedagogik kuzatuv, anketa, suhbat metodlari, pedagogik tajriba-sinov natijalari, matematik-statistik tahlil va qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatda yosh avlod ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirib borish, dunyoga taniqli buyuk mutafakkirlarimiz, ulug' mumtoz adiblarimiz merosini o'qib-o'rganish, xalqimiz orasida milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining ijodini targ'ib qilish, kichik yoshdan kitobxonlik madaniyatini keng yoyish maqsadida muayyan farmon va qarorlar qabul qilindi. Mazkur me'yoriy hujjatlar ta'lif sohasi xodimlari, jumladan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga hikoya janriga oid asarlarni o'quvchilarga singdirish, bu borada o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish zaruratinini ko'ndalang vazifa o'laroq qo'yemoqda. Har qanday fanlarda bo'lgani kabi boshlang'ich sinflar o'quv rejasiga kiritilgan predmetlar bilan bog'liq muhim yumushlardan biri – "o'qitishning maqsadi, vazifasi va mazmunini aniqlab olish" dan iboratdir.

O'zbek metodikasida adabiyot o'qitishning bosh maqsadini professor Q. Yo'idoshev birinchida marta aniqlab va belgilab bergan edi: "...barkamol shaxsni shakllantirish marrasi milliy maktablarimizda adabiyot o'quv predmetini o'rganish uchun bosh maqsad bo'lishi mumkin ekanligini qadimiy qadriyatlarimiz ham, ma'naviy an'analarimiz ham, uzoq tarixga ega pedagogik amaliyotimiz ham, kishilarimiz ruhiy olamiga chuqur singib ketgan badiiy adabiyotimiz ham taqozo etadi" [1]. Bosh maqsaddan kelib chiqqan holda metodist olim V. Qodirov mumtoz adabiyot namunalarni o'qitishning maqsadini o'ziga xos tarzda aniq ifodalab berdi: "Uni quyidagicha ifoda etish mumkin: ta'lif bosqichlarida mumtoz adabiyot (umuman adabiyot) o'qitishdan ko'zlangan bosh maqsad – tarbiyalanuvchilar shaxsiyatida komillik sifatlarini muayyan darajada shakllantirishdan iborat". Istiqlolning ilk davrlaridan O'zbekiston hukumati barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor bilan qaramoqda. Yangilangan ta'lif haqidagi, yoshlar siyosati to'g'risidagi qonunlar, umumta'lif maktablari bo'yicha hukumat farmon va ko'rsatmalari, qarorlar fikrimiz dallidi.

Respublikamizda yoshlar ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish, kitobxonlikni targ'ib qilish, o'zbek tilini asrash, xalqimiz madaniy-ma'rifiy hayotida chuqur iz qoldirgan adiblar ijodini o'rganish – bugungi kunda dolzarb masalalardandir. Ayniqsa, milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi [2]. Qolaversa, yangilanish jarayonlarida ustoz-murabbiylarimizning ishga va hayotga munosabati hamda mas'uliyati tubdan o'zgarib, ularning doimiy izlanib, yangilikka intilib yashayotgani, ilg'or ta'lif texnologiyalari va metodikalarini puxta o'zlashtirib borayotgani, hech shubhasiz, hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda [3]. Bu borada nasriy asarlar, xususan, hikoya janridagi asarlarni o'qitishda yangi metodlar orqali milliy ruhiyatni



zamonaviy o'quvchiga yetkazib berish imkoniyatlari yanada kengaymoqda. Ushbu fikrlar har tomonlama barkamol shaxs tarbiyasi ta'lif jarayoni, jumladan, boshlang'ich sinflarda hikoya janri namunalarini o'rganish uchun maqsad bo'la olishini istifoda etish zaruratiniz belgilaydi.

Ta'lif – o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalananish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalananishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lif jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lif va tarbiya masalalari hal etiladi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborot texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma'nnaviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lif jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shuki, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalananish esa ularni egallayotgan bilimlarni o'zları qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zları keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Bugungi kunda ta'limda "Muammoli ta'lif", "Aqliy hujum", "Fikrlar hujumi", "Tarmoqlar" metodi, "Sinkveyn", "BBB", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Rolli o'yin", FSMU, "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay", "Klaster", "Fikrlarning shiddatli hujumi", "Yalpi fikriy hujum", "Qarorlar shajarası" ("Qarorlar qabul qilish texnologiyasi"), "Qora quti", "3x3" ("4x4", "5x5" ...), "Rasmalarni to'g'ri joylashtir", "Qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash", "Videotopishmoq", "Zakovatli zukko", "Qarama-qarshi munosabat", "Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim", "Ven diagrammasi", "Insert strategiya-si" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda. Tashkil etilishi nuqtai nazaridan interfaol texnologiya – ta'lif ishtiroychilarining shaxsiy qiziqishlari asosida hosil qilinuvchi muloqot jarayonidir. Hozirgi kunda aksariyat pedagoglarning zamonaviy sharoitda ta'lif jarayonida faol va samarali qo'llanayotgan interfaol metodlarning ko'plaridan xabardorligi va asosan quyidagi interfaol metodlardan keng foydalaniyotganligi aniqlandi: rolli o'yinlar, quvnoq o'yinchoqlar, rasmlar o'tasidagi bog'liqlik, refleksiya, ishbilarmonlik o'yinlari, debatlar, amaliy treninglar, dasturiy ta'lif, bahs-munozalar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish ("Case study" – "Papkani o'rganish"), namoyish yoki himoya (prezentatsiya), videotahsil, intervyu va turli nomlar bilan nomlanuvchi interfaol metodlar.

Interfaol metodlarning barchasi muayyan darajada didaktik imkoniyatga ega. Shu sababli ta'lif turi, o'rganilayotgan fan va mavzu yo'nalishi, g'oyasi, ko'lami va boshqa jihatlariga ko'ra interfaol metodlarni to'g'ri tanlay olish maqsadga muvofiqdir. Quyida ayrim interfaol usullarni sharxlash asosida amaliyotchilar uchun ushbu usullarning mohiyati va didaktik imkoniyatlarining tavsifi keltiriladi: "Rolli o'yin". Ushbu usul qo'llanilganda rollar o'quvchilar tomonidan ijro etilganligi bois, ular o'zlashtirilayotgan nazariy ma'lumotlar to'g'risida to'la tasavvurga, shuningdek, amaliy ko'nikmalarga ega bo'la oladilar. Didaktik xarakterdagи o'yinlarning rollar asosida bajarilishi o'quvchilarda mas'uliyat hissini ham shakllantiradi, zero, mas'uliyatni his qilmasdan turib, ma'lum roling xarakterini ochib berish mumkin emas.

Rolli o'yinlarning kutilgan samaranani bera olishi uchun bir qator shartlarga riosa qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan:

- o'quvchilarga foydalananish nazarda tutilayotgan rolli o'yin haqida ma'lumot berish;
- o'yin shartlari bilan tanishtirishda ko'rsatmalarining qisqa, aniq va tushunarli bo'lishiga e'tibor qaratish;
- rollar taqsimlangandan so'ng tayyorlanish uchun aniq vaqt (reglament)ni belgilash;
- utilayotgan natijani aniqlashtirish;
- agar rolli o'yin bir necha guruh ishtirokini talab etadigan bo'lsa, u holda har bir guruhning taqdimoti uchun oldindan vaqtini belgilab olish;
- o'yinga jalb qilinmagan o'quvchilarning kuzatuvchi yoki ekspert sifatida muayyan vazifalarni bajarishlari yuzasidan topshiriq berish;
- rolli o'yin ijro etilgandan so'ng albatta u yuzasidan muhokamani tashkil etish;



- muhibama jarayonida o'quvchilarning e'tiborini u yoki bu ishtirokchining aktyor sifatidagi faoliyatiga emas, balki sinfda ijro etilgan voqeaga qaratish lozim.

S. Kallagan quyidagi shartlarga amal qilinishini rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlovchi omillar deb hisoblaydi:

- jamoa a'zolari o'rtasida samimiy ishchanlik muhitini qaror toptirish;
- qo'yilgan muammoning ishtirokchilar tomonidan ijro etilishida ijodiy yondashishni cheklamaslik;
- ishtirokchilarning erkin, bemalol, o'ziga ishongan holda, xotirjam harakat qilishlariga erishish;
- xonada harakatlanish uchun qulay sharoitning mavjud bo'lishi.

O'yinlar yuzasidan muhibamaning tashkiliy jihatdan to'g'ri tashkil etilishi uchun o'quvchilarning e'tiborini aniq holatlarga qaratish maqsadida bir necha savollarni o'rtaqa tashlash va o'quvchilarning ularga aniq, lo'nda va qisqa javob bera olishlarini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. G.K. Selevko o'yinlarning psixopedagogik jarayon sifatida didaktik imkoniyatlariga yuqori baho berar ekan, ularning quyidagi tarkibiy tuzilmaga ega bo'lishini ta'kidlaydi:

- o'ynash uchun olingen rollar yoki o'yin turi;
- tanlangan rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yinli harakatlar;
- muayyan predmet (jism)larni o'yinning shartli moddiy vositasi sifatida tanlash;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi real munosabatlar mazmuni;
- shartli ravishda yaratilgan syujet (o'yin syujeti).

"Yelpig'ich" metodi. Murakkab, ko'p tarmoqli bu usul muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Ushbu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir vaqtning o'zida axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida yo'nalishlarda muhibama etiladi. Masalan, asar qahramonining yutug'i va muvaffaqiyatsizliklari, fazilat va kamchiliklari, biror voqe-hodisaning sababi va oqibatlari belgilanadi.

Bu interfaol usul o'quvchida tanqidiy, tahliliy, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga, shuningdek, o'z g'oyalari va fikrlarini yozma hamda og'zaki shakllarda ixcham bayon etish va himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Yelpig'ich" usuli umumiy mavzuning ayrim jihatlarini muhibama qiluvchi kichik guruuhlar va ulardag'i har bir ishtirokchining faol ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu metod mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin:

- Mavzu bilan tanishish bosqichida o'quvchilar bilimini faollashtirish, ya'ni yodga solish, foydalaniladigan holatga keltirish uchun;
- Mavzuni o'rganish jarayonida uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish maqsadida;
- Yakunlash bosqichida olingen bilimlarni tartibga solish niyatida.

Ushbu usulning "yelpig'ich" deb nomlanishiga sabab shuki, bu metodni ishlatish jarayoni chizma shaklida ifodalansa, yelpig'ichga o'xshab ketadi.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlardan takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanish ijobjiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olish darajasi va ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga bog'liq bo'lishi kerak. Ta'lilda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalarning fikrini anglash va bu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rinn egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchaliqning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi. Demak, o'qituvchi-pedagog o'z oldiga qo'yilgan murakkab, mas'uliyatlari va dolzarb vazifalarni bajarish, ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha qarashlarni shakllantirish uchun quyidagi xislatlarga ega bo'lishi kerak:

- zamonaviy, ilmiy va madaniy taraqqiyotning mohiyatini chuqur tushuna olishi;
- dunyo va inson haqidagi bilimlar tizimini chuqur va keng nuqtayi nazarda yangilay olishi;
- axborot ta'lim texnologiyalarini va o'qitish vositalarini ta'lim berishda qo'llay olishi;



- internet tarmog'i to'g'risida tushunchaga ega bo'lishi hamda undan o'z bilimini oshirishda foydalana olishi;
- pedagogik mehnat samaradorligini tahlil etish yo'llarini bilishi va o'ziga baho bera olishi;
- oilaviy ta'lif-tarbiya muammolari bo'yicha tasavvurlarini rivojlantira olishi;
- umuminsoniy hamda milliy madaniyat va qadriyatlar, milliy g'oya va milliy mafkura, iqtisodiy islohotlar mohiyatini tushunib olishi;
- dars jarayonida pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish yo'llarini bilishi;
- o'quvchilarning fikrlashlari va bir-birlari bilan fikr almashishlari hamda do'stona muhit yaratish uchun sharoit tashkil eta olishi;
- darsning samaradorligini oshirish uchun laboratoriya jihozlaridan foydalanish va mashg'ulotlar o'tkazishni o'zlashtirib olgan bo'lishi;
- texnik vositalar va o'quv vositalaridan foydalanish yo'llarini bilishi, bolalarning barkamol inson bo'lib yetishshida izlanishlari, ijodkorligi, tashabbuskorligi hamda tinimsiz mehnatlari orqali ta'lif-tarbiya berishi kerak.

## XULOSA

Tavsiya etilgan ish uslublarini amaliyotda qo'llagan ota-onalar va o'quvchilar ularning foydali tomonlarini sinfdan tashqari o'tkazilgan tadbirlar hamda ota-onalar yig'ilishlarida o'z tasdig'ini topganini ko'rishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, hikoya janridagi asarlarni o'qiganda kichik yoshdagi o'quvchilar tabiat va jamiyat voqeа-hodisalarining syujetи tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun esa o'qituvchi zamonaviy ta'lif texnologiyalaridan foydalangan holda dars tashkil etmog'i lozim.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Kodirov V. Didaktik o'yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo'naltirishdagi metodik imkoniyatlari // Andijon DU Ilmiy xabarnomasi. 2020, 2-son. – 129-b.
- O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga navbatdagi murojaatnomasi. <https://oz.sputniknews-uz.com/20221220/shavkat-mirziyoev-30885939.html>. 20.12.2022.
- Мирзиёев Ш.М. Ўқитувчилар ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи // Халқ сўзи, 2021-йил, 29-сентябрь. – Б.
- Ahmedov H. So'z hayratlari va saboqlari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021. – 124 b.
- Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Yangi asr avlodи, 2003. – 190 b.
- Azimova I. va boshqalar. Ona tili va o'qish savodxonligi. 1-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lif markazi, 2021. – 104 b.
- Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2006. – 186 b.
- Baxtli bola ma'naviyati. Tuzuvchilar: Qodirov A., Qur'onov M. va boshq. – Toshkent: Sano-standart, 2018.
- Dolimov S., Ubaydullaev H., Ahmedov Q. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1967. – 448 b.
- Dolinin A.P. Interpretatsiya teksta [Tekst] / A.P. Dolinin. – M.: Prosveshchenie, 1985. – 127 s.
- Zunnunov A. O'zbek adabiyoti metodikasi tarixidan ocherklari. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 196 b.
- Yo'ldosh Q., Yo'ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 464 b.
- Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
- Ishmuxamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.

- 
- 13.00.00** Pedagogika fanlari
  - 13.00.01** Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi
  - 13.00.02** Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03** Maxsus pedagogika
  - 13.00.04** Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05** Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06** Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07** Ta'limda menejment
  - 13.00.08** Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09** Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00** Tarix fanlari
  - 19.00.00** Psixologiya fanlari
  - 01.00.00** Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00** Kimyo fanlari
  - 03.00.00** Biologiya fanlari
  - 09.00.00** Falsafa fanlari
  - 10.00.00** Filologiya fanlari
  - 11.00.00** Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №7**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.